“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jazoni og‘irlashtiruvchi belgilari

Miraziz Abzalov,
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Toshkent shahar boshqarmasi xodimi, mustaqil izlanuvchi
e-mail: m.abzalov@gmail.com

Аннотация. Maqoladabojxonaqonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshijinoyatlar uchunjavobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar ilmiy-nazariy tahlil qilinib, ushbu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni e’tiborga olib jinoyat qonunchiligini tatakomillashtirish bo‘yicha mulohazalar bayon qilingan.

Калит сўзлар. jamoat xavfsizligi, bojxona qonunchiligi buzilishi, jinoyat qonunchiligi, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar, jamoat xavfsizligiga tahdid qiluvchi buyumlar, kontrabanda

Аннотация. В статье представлен научно-теоретический анализ обстоятельств, отягчающих ответственность за преступления против общественной безопасности, связанные с нарушением таможенного законодательства, а также изложены предложения по совершенствованию уголовного законодательства с учетом проблем, возникающих на практике при квалификации указанных преступлений.

Ключевые слова. общественная безопасность, нарушения таможенного законодательства, уголовное законодательства, отягчающие обстоятельства, предметы, представляющие угрозу общественной безопасности, контрабанда

Annotation. The article provides a scientific and theoretical analysis of aggravating circumstances related to criminal liability for crimes against public safety associated with violations of customs legislation. Taking into account the practical problems arising in the qualification of these crimes, the author presents considerations and proposals aimed at improving criminal legislation.

Keywords. public safety, violation of customs legislation, criminal law, aggravating circumstances, items posing a threat to public safety, smuggling

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari oldida boshqa jinoyatchiliklar bilan bir qatorda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi, xususan muomilada bo‘lishi ta’qiqlangan va cheklangan buyumlarning bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tilishi bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurash eng muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Jinoyat qonunchiligiga ko‘ra, jamoat xavfsizligiga tahdid qiluvchi buyumlar sirasiga: kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o’qotar qurol, o‘q-dorilar yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlari, shuningdek giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallar, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlari, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalar, radioaktiv materiallar, diniy mazmundagi materiallar, uchuvchisiz uchadigan apparatlar va pirotexnika buyumlari kiradi[1].

Tadqiqotlar asosida bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sifatida Jinoyat kodeksining 246 (Kontrabanda), 2443 (Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish), 2444 (Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o’tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish) va 2501 (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi) moddalaridagi qilmishlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Shuningdek, amaliyotda tovar va boshqa buyumlarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tilishi natijasida JKning 243-moddasidagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legalllashtirish” jinoyati ham sodir etilishi kuzatiladi[2].

Bizga ma’lumki, jinoyatlarni to‘g‘ri baholash va kvalifikatsiya qilishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyaga ega. Jinoiy jazoni qo‘llash uchun shaxsning huquqqa xilof qilmish sodir etganligi faktini isbotlash, shuningdek shaxs aybli ravishda harakat qilganligini aniqlash zarur.

Bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning jazoni og‘irlashtiruvchi belgilari tahlili ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi: 1) takroran jinoyat sodir etish yoki retsidiv jinoyat; 2) ishtirokchilik shakllari; 3) jinoyat predmetining xususiyati; 4) miqdor ko‘rsatkichi; 5) jinoyat sodir etish usuli; 6) maxsus subyekt; 7) ijtimoiy xavfli oqibatga ko‘ra jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar.

1. **Takroran jinoyat sodir etish yoki retsidiv jinoyat.** JK 2444-moddasi 2-qismi “a” bandi, 2501-moddasi 2-qismi “v” bandida qilmishni “takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan” sodir etilishi uchun jazo og‘irlashtirilgan holda javobgarlik belgilangan.

Jinoyat qonuni retsidiv jinoyatlar sifatida shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan

yangi jinoyat sodir etishini tan oladi. O‘sha holat, ya’ni shaxs sudlangandan keyin ham yangidan jinoyat sodir etsa, bu uning yuqori darajada ijtimoiy xavfliligidan darak beradi. Qonunda bu hisobga olinadi va Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining qurilishi vaqtida retsidivning alohida turlari uchun yanada yuqoriroq javobgarlikni nazarda tutadi[3]. JK 34-moddasida retsidiv jinoyatning 3 ta turi farqlangan, ya’ni umumiy retsidiv jinoyat, xavfli retsidiv jinoyat va o‘ta xavfli retsidiv jinoyat.

Bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning xalqaro xususiyatini inobatga olgan holda, jinoyatni tavsiflashda jinoyatni takroran sodir etganlik belgisi muhim ahamiyatga ega, chunki turli xil tovarlar va buyumlar kontrabandasi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ko‘pincha bir xil jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanadi. Shu bois, ushbu jinoyatni takroran sodir etganlik belgisini milliy qonunchiligimizga ham tatbiq etishni va javobgarlikka tortish masalasini hal qilishda inobatga olinishi lozim, chunki bunday norma bir qator xalqaro jinoiy huquq normalarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu institutni milliy qonunchilikda aks ettirish, albatta bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshiradi.

Bizningcha, bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning nafaqat 2444 va 2501-moddalarida, balki JKning 243, 2443, 246-moddalarida ham takroran, xavfli retsidivist va o‘ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan qilmishlarni jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida umumiy holatdan ajratib, jazo tayinlash maqsadga muvofiq.

2. **Ishtirokchilik shakllari.** JK 2444-moddasi 2-qismi “v” bandi, 2501-moddasi 2-qismi “b” bandida “bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan” qilmish uchun, 2501-moddasi 3-qismi “b” bandida “uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan” qilmish uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik nazarda tutilgan.

Oldindan til biriktirish deganda, jinoyat ishtirokchilari o‘rtasida jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish to‘g‘risida bunday harakatlarni amalga oshirishdan oldindan kelishib olish tushuniladi. Oldindan til biriktirish tomonlarning ko‘zda tutilgan jinoyatning birgalikda sodir etilishidan xabardorligidan, uni sodir etishda har bir ishtirokchining o‘z vazifalarini bilishi, hamjihatlikning nisbatan yuqori darajassi bilan tavsiflanadi[4]. O‘z-o‘zidan ayonki, bunday holatlar jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini yanada oshiruvchi belgi hisoblanadi. Bunday holatlarga nisbatan qat’iy choralarning ko‘rilmasligi o‘z navbatida boshqa insonlarga jinoiy til biriktirishga rag‘bat hisoblanadi. Chunki, oldindan til biriktirish jinoyatni aniqlash va uni ochish holatlarini qiyinlashtiruvchi, jinoyat sodir etilishini osonlashtiruvchi holatdir.

Qilmishning uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi esa, uning xavflilik ko‘rsatkichini yanada oshiradi. JK 29-moddasining 4-qismida 2 yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb

topilishi qayd etilgan. Uyushgan guruh ishtirokchilikning nisbatan xavfli shakli hisoblanadi. Jinoyatda ishtirokchilikning barcha shakllarida jinoyat sodir qilishda kamida ikki kishi qatnashganidek, uyushgan guruhda ham jinoyatning bajaruvchilari sifatida eng kamida ikki kishi ishtirok etgan bo‘lishi kerak[5].

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib, bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarda oldindan til biriktirgan bir guruh shaxslar tomonidan yoki uyushgan guruh a’zosi tomonidan yoxud uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etish holatlari uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida jazolarni differentsiatsiyalash va individuallashtirish maqsadga muvofiq.

Shu maqsadda JK 2443, 246-moddalarida “bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan” qilmish uchun, 2443, 2444, 246-moddalarida “uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan” qilmish uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holatni belgilash taklif etiladi.

3. **Jinoyat predmetining xususiyati.** Bojxona chegasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o‘tkazish bilan bog‘liq qilmishlarni ularning predmetini inobatga olgan holda, nazariy jihatdan quyidagi 2 turkumga ajratish mumkin:

a) maxsus kontrabanda – JK 130, 1301, 1332, 2443, 2444, 246, 2501-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar. Ushbu jinoyatlar axloqiy munosabatlar va jamoat xavfsizligiga zarar yetkazish xususiyatiga ega bo‘lgan predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish bilan bog‘liq;

b) iqtisodiy kontrabanda – JKning 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyat. Ushbu jinoyatlar milliy iqtisodiyot tarmog‘iga *(axloqiy munosabatlar va jamoat xavfsizligiga emas)* jiddiy zarar yetkazish xususiyatiga ega bo‘lgan predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish bilan bog‘liq.

JKda jinoyat predmetlarining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, shu munosabat bilan jinoyat obyektini inobatga olgan holda turli predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun turli moddalarda javobgarlik belgilangan. O‘z navbatida, aksariyat moddalarda ijtimoiy xavflilik darajasi turli bo‘lsa-da, ayrim o‘xshash jihatlar va jinoyatning obyektini inobatga olgan holda bitta moddada ayrim predmetlar uchun jazoni og‘irlashtirgan holda javobgarlik nazarda tutilgan. Jumladan, JK 246-moddasi 2-qismida yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun ushbu moddaning 1-qismida nazarda tutilgan qilmishga nisbatan jazo og‘irlashtirilgan holda javobgarlik belgilangan.

Agar shaxs JK 182-moddasi ta’siriga tushuvchi tovarlarni bojxona chegarasi orqali o‘tkazish bilan bir qatorda kontrabanda jinoyatini sodir etsa, uning harakatlari JK 182 va nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinadi[6].

4. **Miqdor ko‘rsatkichi.** JK 2501-moddasi 2-qismi “a” bandida qilmishni “ko‘p miqdorda sodir qilganlik” uchun, 3-qismi “a” bandida qilmishni “juda ko‘p miqdorda sodir qilganlik” uchun, shuningdek, JK 246-moddasi 2-qismida giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda kontrabanda qilish uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik nazarda tutilgan.

JKga ko‘ra, ko‘p miqdor deganda, bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha bo‘lgan miqdor, juda ko‘p miqdor deganda, bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari va undan ortiq bo‘lgan miqdor tushuniladi.

Ushbu o‘rinda miqdor ko‘rsatkichi tushunarli ko‘rinsa-da, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2023-yil 20-fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son qarorida bojxona chegasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o‘tkazish bilan bog‘liq jinoyatlardagi o‘ziga xos jihatlarni bayon etilga, xususan:

– bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazilayotgan tovarlar miqdorini aniqlashda ushbu tovarlarning jinoyat sodir etilgan vaqtdagi bozor qiymatidan kelib chiqilishi lozim;

– qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazilgan va bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tgan tovarlar amalda mavjud bo‘lmagan (erkin muomalaga chiqarilgan, sotib yuborilgan va h.k.) hollarda ularning qiymati sifatida bojxona rasmiylashtiruvi paytida Bojxona kodeksi 44-bobiga muvofiq aniqlangan bojxona qiymati tan olinadi;

– tovarlar qiymatini aniqlashning imkoniyati bo‘lmagan hollarda (masalan, qalbakilashtirilgan spirtli ichimliklar, kontrafakt tovarlar) ularning qiymati baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi;

– bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazilayotgan tovarlar miqdorini aniqlashda faqat bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki identifikatsiyalash vositalaridan aldash yo‘li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib o‘tkazilgan tovarlar qismining qiymati inobatga olinishi kerak;

– giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalardan qonunga xilof ravishda foydalanishdagi ko‘p miqdor esa, tegishli davlat organining xulosasiga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qarori ilovasiga muvofiq aniqlanadi[7].

Bojxona chegarasi orqali JK 246-moddasining birinchi qismida qayd etilgan kontrabanda predmetlarini o‘tkazishda ifodalangan harakatlarni kvalifikatsiya qilishda kontrabanda predmetlari miqdori huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

5. **Jinoyat sodir etish usuli.** JK 182-moddasi 2-qismi “b” bandida “chegarani buzib o‘tish, ya’ni bojxona xizmatining roziligini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o‘tkazish yo‘li bilan sodir etilgan” qilmish uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik nazarda tutilgan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ko‘rsatmasiga ko‘ra, buzib o‘tish deganda, bojxona postiga hujum qilish, bojxona chegarasini har qanday texnikaviy vositalar yoki boshqa xil usullar bilan bojxona rejimi talablariga ochiqdan-ochiq bo‘ysunmaslik yoki boshqa har qanday yo‘l bilan bojxona chegarasini kesib o‘tishda ifodalangan harakatlar tushunilishi lozim.

Demak, bu o‘rinda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan yana bir muhim jihati chegara buzib o‘tilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha oqibatlar hisoblanadi. Ya’ni, bunday qilmish natijasida aybdor shaxs tomonidan boshqa shaxs, xususan, xizmatchilarning badaniga qasddan shikast yetkazilishi, bunday shikast darajasi yengil, o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir darajada bo‘lishi yoxud boshqa shaxs qasddan hayotdan mahrum etilishi yoki biron mulkiy ziyon yetkazilishi kabi xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bizningcha, qilmishni “chegarani buzib o‘tish, ya’ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o‘tkazish yo‘li bilan sodir etish” holati nafaqat JKning 182-moddasida jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida qayd etilishi, balki, ushbu holat *jinoyatning obyektiv tomoni* sifatida bojxona chegarasidan predmetlarni o‘tkazishda ifodalanadigan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq barcha jinoyatlar uchun taalluqlidir. Shu sababdan, *mazkur jazoni og‘irlashtiruvchi holatni jinoyatning obyektiv tomoni sifatida bojxona chegarasidan predmetlarni o‘tkazishda ifodalanadigan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi barcha jinoyatlar uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi taklif etiladi.*

Ayrim holatlarda aybdor shaxslar predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish jinoyatini qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish bilan birga sodir etadilar. JK 223-moddasi davlat chegarasidan insonning o‘tishi bilan bog‘liq munosabatlarga, bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar esa, chegaradan predmetlarning o‘tkazilishi bilan bog‘liq munosabatlarga tatbiq etiladi. Bunday holatda ularning qilmishi jinoyat predmetini inobatga olgan holda bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq tegishli jinoyat uchun javobgarlik belgilangan modda ham JK 223-moddasi bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi zarur. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorida ham xuddi shunday yondashuv bildirilgan: “agar shaxs bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bir qatorda qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish jinoyatini sodir etsa, uning harakatlari JK 182 va 223-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar

majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim”. Bu masalada olimlar[8] ham xuddi shunday yakdil yondashuvni ilgari surishgan. Sababi, chegaradan g‘ayriqonuniy ravishda qastdan o‘tilishi boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat bo‘lib, u O‘zbekiston Respubliksi chegaralarining daxlsizligiga tajovuz qiladi.

Bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, aksariyat hollarda, qalbakiligi oldindan ayon bo‘lgan xujjatlardan foydalanadilar yoki xujjatlarga soxta ma’lumotlar va yozuvlar kiritish orqali sodir etiladi. Oliy sud plenumining 2023-yil 20-fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son qarorining 12-bandiga ko‘ra, hujjatning qalbaki ekanligini bila turib, uni bojxona organlariga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxsning harakati JK 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi va qo‘shimcha ravishda JK 228-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi.

Ammo, Oliy sud plenumining mazkur qaroridagi qoida muammoga mufassal yechim bermagan. Unda faqat qalbaki hujjat bilan bog‘liq kazusning yechimi ochib berilgan bo‘lib, soxta hujjat yoki soxta ma’lumotlar va yozuvlar kiritilgan hujjatdan foydalanishga doir kazusga yechim berilmagan. Chunki, hujjatni qalbakilashtirish hamda hujjatga soxta ma’lumotlar va yozuvlar kiritish tushunchalari bir-biridan farq qiladi[9]. Shuni e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining mazkur qarorining 12-bandida qayd etilgan yuqoridagi qoidani quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

“Bila turib qalbaki xujjat tuzgan yoki xujjatga yoxud bila turib olgan qalbaki xujjatiga soxta ma’lumotlar va yozuvlar kiritgan hamda uni bojxona organiga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish jinoyatlari uchun javobgarlik belgilangan tegishli moddasi bilan javobgarlikka tortiladi. Bu holatda sodir etilgan qilmish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 209- yoki 228-moddalari bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi talab etilmaydi”.

6. **Maxsus subyekt.** Bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar hokimiyat va boshqaruv idoralaridagi, huquqni muxofaza qilish idoralaridagi, bojxona tuzilmalaridagi korruptsiya bilan bog‘liq qilmishdir. Shu sababdan, kontrabanda aynan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq mansabdolik jinoyatlari bilan birgalikda, xususan, bojxona tuzilmalariga bevosita aloqasi bo‘lgan shaxslar tomonidan xizmat lavozimini suiste’mol qilish orqali, shuningdek, bojxona ko‘rigi yoki bojxona nazoratini amalga oshiruvchi shaxslar bilan til biriktirilgan holda sodir etiladi.

JK 182-moddasi 2-qismi “g” bandida *“xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilgan”* qilmish uchun, 2444-moddasi 2-qismi “b” bandida *“shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan”* qilmish uchun, 2501-moddasi 2-qismi “g” bandida *“mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan”* qilmish uchun jazoni

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

og‘irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik nazarda tutilgan.

Ko‘rib turganimizdek, JKda deyarli o‘xshash masalalarda uch xil atama, ya’ni “xizmat lavozimidan foydalanish”, “xizmat mavqeidan foydalanish” va “mansab mavqeini suiiste’mol qilish” atamalari qo‘llanilgan.

Yuridik adabiyotlarda “xizmat mavqeidan foydalanish” mazmuni keng ma’noda, “xizmat lavozimi yoki vakolatidan foydalanish” esa tor ma’noda tushuniladi. Birinchi yondashuv vakillari B.S. Utevskiy, A.B. Saxarov, N.I. Zagarodnikovga ko‘ra, mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish nafaqat xizmatdagi, mansab vakolati doirasidagi harakatlarni, balki mazkur mansabi yoki lavozimi tufayli mavjud imkoniyatlardan, shu jumladan, egallab turgan lavozimining ta’siri, boshqa mansabdor shaxslar bilan aloqalari tufayli foydalanishni ham nazarda tutadi. Aybdorlarning xizmat yoki mansab mavqeidan foydalanish va u taqdim etayotgan imkoniyatlar (lavozim ta’siri, xizmat aloqalari) bilan bog‘liq qilmishlari xizmat vakolatidan foydalanish yoki xizmat yoxud mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish sifatida ko‘rilishi zarurligini ta’kidladilar[10].

A.A. Piontkovskiy, V.D. Menshagin, V.F. Kirichenko va boshqalar boshqacha fikrda bo‘lgan. Ularning fikricha, agar bu qilmish xizmat vazifasidan tashqari sodir etilgan bo‘lsa, mansabni suiiste’mol qilish bo‘lmaydi. B.V.Voljenkin ham shu fikrga qo‘shilib, agar mansabdor shaxs o‘z vakolatlaridan emas, balki rasmiy aloqalari yoki o‘z xizmat ta’siridan foydalangan holda kerakli qarorga erishsa, ushbu jinoyat uchun jinoyat tarkibi yo‘qligini ta’kidladi[11].

Shuningdek, V.I. Dineka va A.I. Sulaymonovaga ko‘ra, xizmat yoki mansab vakolatlarini suiiste’mol qilishda egallab turgan xizmat yoki mansab vakolatidan foydalanish, mansabdorlik va xo‘jalik aloqalari to‘g‘risida gapirish qonunga xilofdir, chunki ular rasmiy ravishda xizmat yoki mansab vakolatlarining zaruriy tarkibiy qismi emas. Bunday holda, mansabdor shaxs o‘z huquq va majburiyatlarini suiiste’mol qilmaydi, uning harakati shunchaki ayblanuvchi va axloqsiz hisoblanadi, bu esa intizomiy jazo choralarini ko‘rish mumkinligini anglatadi[12].

Biz xizmat mavqeidan foydalanish tushunchasi xizmat lavozimidan foydalanish tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha degan qoidaga qo‘shilamiz. Xizmatchi yoki mansabdor shaxs xizmat yoki mansab (lavozim) mavqeidan foydalanishi deganda, uning o‘ziga rasmiy ravishda berilgan xizmat yoki mansab (lavozim) vakolatlaridan tashqari shu xizmat yoki mansab lavozimi munosabati bilan uning ta’sir doirasidan, aloqalaridan foydalanishi tushuniladi.

Shuningdek, xizmat mavqei va mansab maqei tushunchalarini ham farqlash zarur. Fikrimizcha, xizmat mavqei tushunchasi mansab maqei tushunchasidan kengroqdir. Mansab tushunchasi o‘z ma’nosida mansabdor shaxsga taaluqli tushuncha hisoblansa, xizmat mavqei ham mansabdor shaxsning xizmat mavqei, ham mansabdor bo‘lmagan boshqa davlat xizmatchilarining xizmat mavqeini qamrab oladi. JKda xizmat lavozimidan foydalanish yoki

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

uni suiiste’mol qilish talqinida 2 ta holatda, xizmat mavqeidan foydalanish 16 ta holatda, mansab mavqeidan foydalanish 9 ta holatda qo‘llanilgan. Bunda fikrimiz tasdig‘i sifatida mansab mavqei tushunchasi faqat mansabdor shaxslarga nisbatan qo‘llanilganligini kuzatishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillarga asosan, *biz bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarda “xizmat mavqeidan foydalanish” atamasini qo‘llash hamda ushbu turdagi jazoni og‘irlashtiruvchi holatni bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq barcha jinoyatlarda aks ettirish zarur, deb hisoblaymiz.*

7. **Ijtimoiy xavfli oqibatga ko‘ra jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar**. JKda bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bo‘yicha ijtimoiy xavfli oqibatga ko‘ra jazoni og‘irlashtiruvchi quyidagi holatlar nazarda tutilgan:

– badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi (JK 2444-moddasi 2-qismi “g” bandi, 2501-moddasi 2-qismi “d” bandi);

– odam o‘limi (JK 2444-moddasi 3-qismi, 2501-moddasi 3-qismi “v” bandi);

– odamlar o‘limi (JK 2444-moddasi 4-qismi “a” bandi, 2501-moddasi 4-qismi “a” bandi);

– halokat (JK 2444-moddasi 4-qismi “b” bandi);

– boshqa og‘ir oqibatlar (JK 2444-moddasi 4-qismi “v” bandi, 2501-moddasi 4-qismi “b” bandi).

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni mamlakatda *favqulodda holat joriy etilgan vaqtda sodir etilishi* masalasiga ham e’tibor qaratish zarur.

Ma’lumki, favqulodda holat konstitutsiyaviy huquqning eng muhim tartiblaridan biri, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatining maxsus qonun bilan belgilanadigan fuqarolar huquq hamda erkinliklari va yuridik shaxslar huquqlarining cheklanishiga, shuningdek ular zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklanishiga yo‘l qo‘yadigan alohida tartib hisoblanadi. Favqulodda holat, odatda, muvaqqat chora hisoblanadi va, eng avvalo, jamoat va davlat xavfsizligini ta’minlash maqsadlarida joriy etiladi. Favqulodda holat atamasi keng (asl) va tor (maxsus) ma’noda ishlatilishi mumkin. Keng ma’noda favqulodda holat tushunchasi tom ma’nodagi favqulodda (RF, AQSH, Braziliya, Ispaniya va b.lar), harbiy (AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston), qamal (Argentina, Belgiya, Gretsiya, Frantsiya) holatlarini, urush holatini (Belgiya, Italiya), taxdidni (Ispaniya), tayyorgarlikni (Gabon), mudofaani (GFR, Finlyandiya, Kosta Rika) va boshqalarni anglatadi. Bu tartiblar o‘rtasidagi farq ko‘pincha jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Favqulodda holatning u yoki bu shaklini kiritish uchun asoslar, qoidaga ko‘ra, quyidagilar hisoblanadi: 1) tashqi taxdid (urush, tashqaridan bostirib kirish, xalqaro mojaro va boshqalar); 2) tinchlik, ommaviy tartib va xavfsizlikning buzilishi; 3) konstitutsiyaviy tuzumga xavf; 4) fuqaro urushi, g‘alayon; 5) halokat, epidemiya, tabiiy ofat; 6) ish tashlashlar, iqtisodiy tanazzul va h.k.lar

oqibatida mamlakat iqtisodiy hayotiga jiddiy taxdid; 7) bartaraf etib bo‘lmaydigan konstitutsiyaviy tanazzulning paydo bo‘lishi (ayrim hokimiyatlar, markaz bilann federatsiya sub’ektlari o‘rtasidagi ixtiloflar)[13]. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lish mohiyatan jamoat va davlat xavfsizligiga xavf tug‘diruvchi kontrabanda predmetlarning qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazilishi, ularning ijtimoiy, davlat va jamoat uchun xavflilik darajasini keskin oshiradi.

Bizning fikrimizcha, bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar *favqulodda holat joriy etilgan vaqtda sodir etilishini jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq.*

Xulosa o‘rnida ta’kilash mumkinki, yuqoridagi fikrlar va takliflar milliy jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirishga va jamoat xavfsizligi uchun xatarli bo‘lgan predmetlarni mamlakatimizga olib kirish yoki olib chiqish uchun javobgarlikni kuchaytirishga, shu orqali aholi xavfsizligini ta’minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va axborot-resurs manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, https://www.lex.uz/docs/111453

2. Achilov A.T. Jamoat xavsizligiga qarshi jinoyatlar (bojxona qonunchiligi buzilishi misolida). //O‘quv qo‘llanma -Toshkent: JXU, 2024 y.–135 b.

3. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик / А.С.Якубов, Р.Кабулов ва бошқ. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 261.

4. Рустамбаев М.Ҳ. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. Т.1. Умумий қисм. Жиноят тўғрисида таълимот: Дарслик. – Тошкент: Ilm Ziyo, 2011. – Б. 279.

5. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи: Умумий қисм: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 296.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2023 yil 20 fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son qarori. // www.lex.uz/docs/6404212

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 330-son qarori, https://lex.uz/docs/-2815340

8. Allanova A.A. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish uchun javobgarlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolar. Yurid. fan. fal. dokt. diss.... – Toshkent, 2020. – B. 215.

9. Sunnatov V.T. Mansab soxtakorligiga qarshikurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari. Yurid. fan. fal. dokt. diss.... –

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Toshkent, 2021. – B. 80-81.

10. Чирков А.А. Злоупотребление должностными полномочиями должностными лицами таможенных органов: уголовно-правовые и криминологические аспекты. // Отечественная юриспруденция. – 2015. – №1. – С. 35.

11. Гончаров В.А. Злоупотребление должностными полномочиями: законодат. и правоприменит. аспекты: по материалам судеб. практики Ростов. обл.: Дис. ... канд. юрид. наук. – Краснодар, 2007. – С. 58

12. Динека В.И. Ответственность за должностные преступления по уголовному праву России: (уголовноправовой и криминолог. аспект): Дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2000. – С. 135

13. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. Нашр учун масъул: Р.А.Муҳитдинов ва бошқ. / Масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 477